

MAVZU. BOG'LIQLIK NAZARIYASI

1. [B – 1 ball]. “Bog‘liqlik nazariyasi” bo‘yicha birinchi psixologik tadqiqotlar olib borgan amerikalik olim kim?

- A. J.Boulbi
- B. M.Eynsvort
- C. K.Yung
- D. Z.Freyd.

Manba: Bowlby J. Separation Anxiety // [The International Journal of Psychoanalysis](#). 41, 89–113.

2. [B – 1 ball]. Jon Boulbining “Bog‘liqlik nazariyasi”ga ko‘ra emotsional bog‘liqlikning turlarini belgilang.

- A. Xavfsiz, xavotirli-beqaror va qochuvchi
- B. Xavfsiz va qochuvchi
- C. Xavotirli-beqaror va qochuvchi
- D. Xavfsiz va xavotirli-beqaror.

Manba: Bowlby J. Separation Anxiety // [The International Journal of Psychoanalysis](#). 41, 89–113.

3. [B – 1 ball]. M.Eynsvort tomonidan ishlab chiqilgan "Notanish vaziyat" protsedurasi necha xil protseduradan iborat?

- A. 8 epizod
- B. 7 epizod
- C. 6 epizod
- D. 4 epizod.

Manba: Eynsvort, M. D.; Bell, S. (1970) M. Bog‘liqlik, tadqiqotlar va separatsiya: notanish vaziyatda bir yoshli bolalarning xatti-harakatlarini o‘rganish // Bola rivojlanishi: Jurnal. 41, 49–67.

4. [Q – 2 ball]. Endigina maktabgacha ta’lim tashkilotiga qatnay boshlagan Anora uni onasi MTTga qo‘yib ketayotganida onasining ketishiga reaksiya

bildirmadi, qaytganida ham befarq bo'ldi, tarbiyachisi va bolalarga nisbatan masofa saqlab turdi, ular bilan qo'shilib o'ynab keta olmadi.

Bu ta'rif emotsional bog'liqlikning qaysi turiga to'g'ri keladi?

- A. Qochuvchi
- B. Xavfsiz
- C. Xavotirli-beqaror
- D. Xavotirli-qochuvchi.

Manba: Eynsvort, M. D.; Bell, S. (1970) M. Bog'liqlik, tadqiqotlar va separatsiya: notanish vaziyatda bir yoshli bolalarning xatti-harakatlarini o'rganish // Bola rivojlanishi: Jurnal. 41, 49–67.

5. [Q – 2 ball]. Javlon maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelayotganiga bir hafta bo'ldi. U onasi ketganida norozi bo'ladi (yig'laydi, izlaydi), onasi qaytib kelganidan so'ng tezda tinchlanadi va onasi bilan munosabatlarini davom ettiradi, onasi unga ishonch manbai hisoblanadi.

Bu ta'rif emotsional bog'liqlikning qaysi turiga to'g'ri keladi?

- A. Xavfsiz
- B. Qochuvchi
- C. Xavotirli-qochuvchi
- D. Xavotirli-beqaror.

Manba: Eynsvort M.D. Obyektiv munosabatlar, qaramlik va bog'liqlik: bola va ona munosabatlarining nazariy sharhi // Bola rivojlanishi: jurnal. - Blackwell nashriyoti.

6. [Q – 2 ball]. Mana uch haftadirki, Ruxsora maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnayapti. MTTni oldiga yaqinlashishlari bilan u yig'lashni boshlaydi. Tarbiyachisini ko'rsa yanada yig'isi kuchayadi. Bir amallab tarbiyachi bolani olib qolgandan keyin Ruxsora juda bezovta bo'ladi, ancha vaqtdan keyin ovunib uxlab qoladi. Onasi qaytgach esa uni quchoqlaydi, lekin shu bilan birga bir vaqtning o'zida ranjiganligini namoyon qiladi, hissiy jihatdan nomutanosib reaksiya ko'rsatadi.

Bu ta'rif emotsional bog'liqlikning qaysi turiga to'g'ri keladi?

- A. Xavotirli-beqaror

B. Xavotirli-qochuvchi

C. Qochuvchi

D. Xavfsiz.

Manba: Eynsvort M.D. Obyektiv munosabatlar, qaramlik va bog‘liqlik: bola va ona munosabatlarining nazariy sharhi // Bola rivojlanishi: jurnal. - Blackwell nashriyoti.

7. [M – 3 ball]. M.Eynsvort tomonidan ishlab chiqilgan "Notanish vaziyat" protsedurasi nimani baholash uchun mo‘ljallangan?

A. Bolada ijobiy bog‘liqlik darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladigan psixologik baholash usuli

B. Bolada salbiy bog‘liqlik darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladigan psixologik baholash usuli

C. Onaning psixologik holatini psixologik baholash usuli

D. Ona bilan bolaning emotsional holatini psixologik baholash usuli.

Manba: Eynsvort, M. D.; Bell, S. (1970) M. Bog‘liqlik, tadqiqotlar va separatsiya: notanish vaziyatda bir yoshli bolalarning xatti-harakatlarini o‘rganish // Bola rivojlanishi: Jurnal. 41, 49–67

8. [M – 3 ball].Onasi bilan xavfsiz emotsional bog‘lanishga ega bo‘lgan bolalar qanday oilalarda voya yetkaziladi?

A. Oilaviy o‘zaro munosabatlar do‘stona, bolaning ehtiyojlari qondiriladigan, bolaga xavfsizlik hissiyotini bera oladigan oilalarda

B. O‘zaro munosabatlari ijobiy, lekin bolani ehtiyojlari qondirilmaydigan oilalarda

C. Bolaga xavfsizlik hissi berilgan, lekin janjalkash oilalarda

D. Noto‘liq oilalarda.

Manba: Eynsvort M.D. Obyektiv munosabatlar, qaramlik va bog‘liqlik: bola va ona munosabatlarining nazariy sharhi // Bola rivojlanishi: jurnal. - Blackwell nashriyoti.

9. [M – 3 ball]. Mana uch haftadirki, Ruxsora maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnayapti. MTTni oldiga yaqinlashishlari bilan u yig'lashni boshlaydi. Tarbiyachisini ko'rsa yanada yig'isi kuchayadi. Bir amallab tarbiyachi bolani olib qolgandan keyin Ruxsora juda bezovta bo'ladi, ancha vaqtdan keyin ovunib uxlab qoladi. Onasi qaytgach esa uni quchoqlaydi, lekin shu bilan birga bir vaqtning o'zida ranjiganligini namoyon qiladi, hissiy jihatdan nomutanosib reaksiya ko'rsatadi.

Ushbu vaziyatda bolaning onasi qanday xatolikka yo'l qo'ygan?

A. Onaning noto'g'ri xulq-atvori, tashabbuslari yoki bolaning sog'lig'i haqidagi haddan ortiq tashvishlari oqibatidir. Ona turli vaziyatlarda unga ruxsat beradi va ba'zida taqiq qo'yadi. Ba'zan bolani oldida bo'ladi, ba'zida esa yo'q. Bola esa oni yo'qotib qo'ymaslik uchun unga yopishib olgan*

B. Ota-onalar bolani rad etgan, uning ehtiyojlariga munosabat bildirmagan, uni hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlamagan yoki tarbiyaning taqiqlangan shakllari ustunlik qilgan

C. Ota-ona bolaning ehtiyojlarini munosib tarzda qondirishga qodir bo'lgan. Ona bilan ishonchli bog'liqlikka ega bo'lgan bola o'zini xavfsiz his qilgan, shuning uchun ular atrof - muhitni o'rganishga ko'proq intilgan

D. Ota-ona bola bilan agressiv munosabatlarda bo'lgan shuning uchun bola ko'p xarxasha qilgan.

Manba: Eynsvort M.D. Obyektiv munosabatlar, qaramlik va bog'liqlik: bola va ona munosabatlarining nazariy sharhi // Bola rivojlanishi: jurnal. - Blackwell nashriyoti.

10. [M – 3 ball]. Uzoq muddatdan beri MTTga qatnayotgan Zuhridinda agressiv xulq-atvor belgilari kuzatilyapti. U ba'zan bolalarni tishlaydi, tirnaydi, uradi va doimiy norozilik kayfiyatida. Uning xulq-atvori bo'yicha onasiga murojlat etilganda, ularning oilasida hammasi yaxshiligi, nima uchun o'g'lining ahvoli bunday emasligini ta'kidlab keladi. Shunda tarbiyachisi bolani MTT amaliy psixologiga yo'naltirganida, psixolog bolaning xulq-atvorini kuzatish va ona bilan bo'lgan munosabatini kuzatish orqali bolada xavfli emotsional bog'liqlik bor ekanligini aniqladi.

Ona tomonidan qanday xatolikka yo‘l qo‘yilgan?

A. Onaning bolaga nisbatan qattiqqo‘lligi, bolaning ehtiyojlari o‘z vaqtida qondirilmasligi, biror nojo‘ya harakati uchun ham kaltaklash bilan javob berish, doimiy tanqid qilish.

B. Onasi bola uchun ishonchli bo‘lgan. Bolani doimiy qo‘llab-quvvatlagan, bolaning barcha ehtiyojlari ketma-ketlikda qondirilgan.

C. Bolaning har qanday ehtiyoji o‘z vaqtida qondirilgan, ota va ona bolani hamfikrlikda, birgalikda katta qilishgan.

D. Ota-ona bola bilan agressiv munosabatlarda bo‘lgan shuning uchun bola ko‘p xarxasha qilgan.

Manba: Manba: Eynsvort M.D. Obyektiv munosabatlar, qaramlik va bog‘liqlik: bola va ona munosabatlarining nazariy sharhi // Bola rivojlanishi: jurnal.
- Blackwell nashriyoti.